

SHOYIM BO‘TAYEV QISSALARIDA OBRAZLAR OLAMI VA RUHIYAT TALQINI

Suyunova Dilbar Rustam qizi

SamDU tadqiqotchisi

Annotatsiya

Iste’dodli adib Shoyim Bo‘tayevning qissa va romanlarida insonning turfa xil olamini badiiy taqlin etar ekan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, insoniy fazilatlar bilan bir qatorda inson va tabiat, inson va jamiyat, olam va borliqni kashf etishda uning turli xarakter qirralartini talqin etadi. Shuning uchun adibning asarlarida insoniyat fojiasi, insoniyatning ruhiy istiroblari, tabiat va koinot misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: obraz, inson, xarakter, tabiat, jamiyat, talqin, mahorat.

XX asr adog‘ida mamlakatimiz uzra g‘oyat keskin ijtimoiy-iqtisodiy evrilishlar yuzaga kelishi O‘zbekiston madaniy-ma’rifiy turmush tarzida ham jiddiy yangilanish yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Ayniqsa, millatning ma’naviy mustaqillikka erishuvi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jabhalarni jiddiy isloh ehtiyojiga keng imkoniyatlar ochdi. Tarixga nisbatan qisqa fursat davomiyligida jamiyatimiz bircha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanish – millatning ozodlik, o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lidagi intilishlari adabiyotshunoslik oldiga ham muhim vazifalarni ko‘ndalang qo‘ydi. Milliy istiqlol davriga kelib jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Nasrchilik, xususan, milliy romanchilikda qisqa vaqt mobaynida inson ma’naviyati tadqiqi birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy andozalar yemirilayotganligi ruhiyat talqiniga zaruratni oshiradi. Tabiiy ravishda, mazkur xususiyat voqyelikni tadqiq etishning o‘zgacha tamoyillarini yuzaga chiqardi.

Asrlar davomida roman poetikasi janr imkoniyatlari cheksiz ekanligini namoyon etdi. Tadqiqotlar natijalari roman nafaqat so‘z san’atining eng mukammal namunasi, balki o‘zi yaratilgan davr uchun ham muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga,

roman boshqa adabiy janrlar ichida insonga xos bo'lgan ong, ruh, vujud, aql tushunchalarini bir-biri bilan garmonik uyg'unligini aks ettira olgan, insonni shaxs sifatida shakllanishi jamiyat bilan bog'liqligini to'laqonli, keng qamrovli badiiy inkishof eta olgan janrdir. Shuning uchun adabiyotshunos Umarali Normatov bu haqida shunday yozadi: "Badiiyat olamidagi eng asosiy o'zgarish shundan iboratki, san'at, adabiyot, adabiyotshunoslik yakkahokim mafkura iskanjasidan xolos bo'ldi, san'at va adabiyoning erkin, xilma-xil falsafiy-estetik o'zanlar bo'ylab rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi" [1,5-bet]. Shu o'rinda romanlardagi barcha janr o'zgarishlar oqimi bugungi romanchiligimizda keng miqiyosda asarni yoritib berishga xizmat qilib kelmoqda.

Romanning badiiy-estetik ahamiyati shundaki, yozuvchi romanga xos tafakkurni romanga jalb etishda polifonik talqin yo'llariga murojaat etadi. Qahramon ongida tashqi muhit ta'sirida tug'ilgan, ruhtyatiga xos bo'lgan andishani yengish g'oyasi bora-bora uning ruhida kuchga aylanadi. Qahramon obrazlarini yoritib berishda adabiyotshunos olim B. Sarimsoqov ta'kidlaganidek: "Tasvirlardagi obrazlilikning jonli chiqishi uchun uning atrofga qay tarzda tarqala boshlaganligini aytadi. Tabiatda shom qorong'usi hamma joyga tabiiy tushadi, u dastlab bir joyga tushib, keyin jonli narsadek tarqalmaydi" [2,26-bet]. Adibning birgina shu gapdagi obrazlilik va bu obrazlilik tasvirdagi badiiylikning mohiyatini, o'zagini tashkil etish haqida juda ko'p yozish mumkinligini ta'kidlashi ham bejiz emas.

Abdug'ofur Rasulovning "...nasr badiiyliigi asar to'qimasiga singdirib yuborilgan, billur zarralariday «yalt-yult» yonib turadigan topildiq-detallarda namoyon bo'ladi... Shoyim Bo'tayevning qissalaridagi uvoq timsollarning mag'zi to'q, xalqonaligi yaqqol ko'zga tashlanadi" degan fikri ayni haqiqatdir. Shoyim Bo'tayevning o'zi "Hurriyat"dagi suhbatdoshiga "El qiyofasi... kuchli shaxslarda va milliy xarakterlarda namoyon bo'ladi" degan ekan, uning butun ijodi davomida ana shu aqidaga rioya qilib kelayotganini kuzatish mumkin. "Kunchiqardagi bog'"dagi kuchli shaxs va milliy xarakterga ega bo'lgan Ulg'ay ena obrazi buning birinchi misolidir" – deb qayd etgan edi.

Ulg‘ay ena qariganda yolg‘izlikka mahkum bo‘lgan, ammo el aro katta hurmat qozongan va jamiyatning ajralmas bir qismiga aylangan muhtaram ayoldir. Uning eri o‘zidan keyin katta bog‘ qoldirgan ajoyib bog‘bon edi. Ulg‘ay ena qarilikni ham, butun dunyoni ham unutib, bog‘ nevarasiga o‘tishini istaydi. Uning nazdida bog‘ vatan timsolidir va bog‘ degan narsa uni o‘stirgan, parvarish qilgan, unga egalik qila olgan odamga meros bo‘lmog‘i kerak.

Istiqlol davri adabiyoti yangi ohanglar hisobiga boyigani bilan xarakterlidir. Ushbu holat Shoyim Bo‘tey adabiy talqinlarida jahonning ilg‘or an‘analarini o‘zlashtirish va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirish hisobiga o‘zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an‘anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko‘rsatish, tasvirlash)ning o‘z o‘mini bo‘shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Shu o‘rinda jiddiy izlanishlar olib borgan va ko‘plab qissa, hikoya, maqololar e‘lon qilgan Shoyim Bo‘tayevning ijodi ayni diqqatga sazovordir.

Har bir ijodkor o‘z individual uslubiga ega bo‘lar ekan, aynan uslubda – ijodkorning borliqqa munosabati, hayotni qayta baholashi, qobiliyati, mahorati, kuztishlari boshqa ijodkorlardan farq qiluvchi tomonlari namoyon bo‘ladi. Ayni paytda, uslub yozuvchi badiiy mahoratini belgilovchi mezon sanaladi, desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz.

Ta‘kidlash joizki, mahoratning qanchalik yuksakligini yozuvchi – uslubi ham belgilab beradi. Ba‘zi bir yozuvchilar ijodida chuqur ruhiy tahlilga moyillik ustuvorlik qilsa, ba‘zilarida sodda, jo‘ngina dialoglarga ma‘no yuklashga ustamon bo‘ladi, ba‘zilar har ikkisini barovar rivojlantirib boradi. Bunday deyishimizga sabab shuki, Shoyim Bo‘tayev badiiy izlanishlarida hayotni oddiy kuzatishdan to murakkablik tomon harakatlanishi kundalik turmushimizda tez-tez uchrab turadigan maishiy muammolarning tomir yoyish sabablarini butun-murakkabligicha ochib berishida qabarib ko‘rinadi.

Munaqqid H.Umurov e‘tiroficha: «Mahoratni egallash uzluksiz davom etadigan jarayondir. Yozuvchi o‘z ijodining ma‘lum davrida – usta san‘atkor darajasiga

ko'tarilishi mumkin. Agar u shu bilan cheklansa, badiiy mahoratini o'stirmasa – hayotdan va san'atdan o'rganishda davom etmasa u orqaga ketaveradi, o'quvchilari soni kamayaveradi. Demak, o'rganish, kashf etish to'xtagan joyda tal'ant kuchi, ta'siri susaya boshlaydi» [3,41-bet].

Tarixga nisbatan qisqa fursat davomiyligida jamiyatimiz bircha sohalarida kuzatilayotgan demokratik yangilanish – millatning ozodlik, o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi intilishlari adabiyotshunoslik oldiga ham muhim vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Ayniqsa, milliy istiqolol davriga kelib jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Nasrchilik, xususan, milliy romanchilikda qisqa vaqt mobaynida inson ma'naviyati tadqiqi birinchi o'ringa ko'tarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga ko'tarilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy andozalar yemirilayotganligi ruhiyat talqiniga zaruratni oshiradi. Davrhaqiqat, romandagi syujet dinamikasi o'ziga xosligi tadrijiy takomili asosida turfa xil taqdirlar, turfa obrazlarning xatti-harakati, dunyoqarashi, qalb kechinmalarini ifodalash yozuvchidan kata mahorat va matonat talab etadi. Jumladan, Shoyim Bo'tayev milliy nasrimizga o'tgan asrning 80 yillarida kichik janrda ya'ni hikoya yozish bilan kirib kelgan bo'lsa, katta janrda ham barakli ijodiy mahoratini nomayon qila olgan adiblarimizdan biri sanaladi. Darvoqe, joriy pallada istiqolol deb atalmish estetik hodisa silsilasida roman janri ham salmoqli mavqeni kasb etadi. Bu boradagi jiddiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, polifonik tafakkur, polifonik unsurlar, romanadagi ko'pqatlamlilik, ko'povozlilik, tamomila boshqa-boshqa uslubiy maneralar o'z ifodasini topyotganligidan dalolat beradi.

Darvoqe, munaqqid e'tiborni «kashf etish, o'rganish»ga qaratadi. Biz bu fikr-mulohazadan shuni anglash mumkinki, yillar davomida yig'ilgan ijodiy izlanish va tajriba «kun»i kelib tashqariga chiqsa, ana shundagina yuksak did va mahorat bilan bitilgan badiiy javhar tug'ilishi mumkinligiga iqror bo'lamiz. Uslub - yozuvchi xayolot olamining individual namoyon bo'lish tarzi hamdir. Yozuvchi, shoir voqealarni, qahramonlarni, ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi. Adib asarlarida inson konsepsiyasining badiiy talqinida milliy ruh va xarakterlar etakchilik qiladi.

Adabiyotlar:

1. Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyollar. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2000.
2. B. Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
3. Умуров Х. Бадий ижод асослари. – Toshkent, “Ўзбекистон”, 2001.
4. Bo‘tayev Sh. Sho‘radan qilgan odamlar. – Toshkent, ”Ijod press”, 2019.
5. Solijonov Y. Nutq va uslub. – Toshkent, Cho‘lpon, 2002/
6. Nasirov A. Badiiylik va hayotiy haqiqat. – Turkiya, Istambul, Kesit, 2019.